
“Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”

Joriy yilning 22 iyun kuni Marg'ilon shahar hokimligida **“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasiga kelib tushayotgan murojaatlar va ularni ijobiy hal etish borasida olib borilayotgan ishlarning natijadorligi”** mavzusida o‘quv seminar o‘tkazildi.

Seminarda shahar, tuman hokimliklari tashkiliy-nazorat guruhi rahbarlari, devonxona mudirlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasidan kelib tushgan murojaatlari bo‘yicha mas‘ul xodimlari ishtirok etdilar.

Viloyat hokimligi bo‘linma mudiri M.Axunjanova, Marg'ilon shahar hokimligi Devonxona bo‘limi mudiri G.Xodjaeva va boshqa mas‘ul xodimlar o‘z ma‘ruzalarida bugungi kunda mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, fuqarolarimizning huquqiy bilim saviyalarining o‘sib borayotganligi va ushbu jarayonlardagi bevosita ishtiroklari hamda ularga nisbatan bildirayotgan munosabatlari davlat organlari tomonidan fuqarolarning yozma va og‘zaki murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha ishlarni qaytadan ko‘rib chiqish va tubdan tizimli yo‘lga qo‘yish lozimligini bildirdilar.

Ishtirokchilar seminar davomida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish, murojaatlarni ko‘rib chiqish hamda ish yuritish bo‘yicha hokimlik tizimida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tajriba almashish, kelgusida joylarda murojaatlarni ko‘rib chiqishning natijadorligini va mansabdor shaxslarning mas‘uliyatini yanada oshirish yuzasidan fikrlashib olindi.











2018-06-29 12:22:12